

EVFEMIZM TILDA ISHLATILISH HOLATLARI VA BADIY ADABIYOTLARDA

AKS ETISHI

Karimova Sevinch

Termiz davlat universiteti talabasi.

Sevinchkarimova570@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14956365>

Annatsiya. Ushbu maqolada evfemizmining kelib chiqishi, tasnifiy belgilari, tilda ishlatilish holatlari keltiriladi va badiiy adabiyotlarda evfemizmlarning dolzarblik xususiyatlari misollar yordamida hamda tadqiqotchi olimlar fikrlari orqali isbotlab beriladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, evfemik ma'no, lisoniy, nolisoniy belgi, tabu.

EUPHEMISM IN LANGUAGE AND ITS REFLECTION IN FICTION

Abstract. This article presents the origin of euphemism, classification features, cases of use in language, and proves the relevance of euphemisms in fiction with the help of examples and the opinions of research scientists.

Keywords: euphemism, euphemistic meaning, linguistic, non-linguistic sign, taboo.

ЭВФЕМИЗМЫ В ЯЗЫКЕ И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ
ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В статье рассматривается происхождение эвфемизмов, их классификация и использование в языке, а также доказывається актуальность эвфемизмов в художественной литературе с использованием примеров и мнений ученых-исследователей.

Ключевые слова: эвфемизм, эвфемистическое значение, лингвистический, нелингвистический знак, табу.

Hozirgi kunda evfemizmlar hayotimizning barcha sohalarida keng va faol bo'lib ishlatilmoqda. Aynan so'nggi 10 yil ichida evfemizm til birligi sifatida mahalliy va xorijiy tilshunoslarning muhimligi jihatidan mashhur tadqiqot obyektiga aylandi. Tilshunos sifatida evfemizmlarning vazifasi va nutqdagi o'rnini tushunish juda muhimdir. Chunki ularni tushunish ijtimoiy nutq normalarni yaxshi anglash hisoblanadi. Evfemiz yunoncha "yumshoq ifodalash" deya tarjima qilinadi va so'zlovchiga aytish noqulay bo'lgan so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi sinonimlar sifatida qaraladi. Ya'ni evfemizm tabulashtirilgan, ochiq aytilishi man etilgan, ayb, uyat, hayosizlik, dag'al, qo'pol, haqorat, so'kish hisoblangan.

Masalan, A. Hojiyevning 2002 –yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati" da evfemizmining quyidagicha izoh beriladi: qo'pol, beadab so'z, va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z iborani qo'llash.

Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash. Biroq lug'atda defemizmga doir fikr bildirilmagan. A.M. Katsev uni ijtimoiy psixologik- jihatdan talqin etadi. Qayta nomlash bilan bog'liq tomoni esa N.M. Berdova tomonidan tadqiq etiladi va izlanishlar natijasida evfemizmning to'rt jihatini aniqlanadi: lisoniy -psixologik; ijtimoiy – pragmatik. N.M. Potapova tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ayni jarayonning quyidagi belgi (mezon) larni ko'rsatadi: Denotatning stigmatikligi (salbiy bo'yoqdorligi) ("stigma" tushunchasi N.M. Berdova tadqiqotiga sharhlanadi: "stigma ostida nafaqat predmetning antetsedentda aks etgan salbiy xususiyati, balki salbiy taassurot uyg'otish hossalari ham tushuniladi");

Evfemiya, ya'ni efemizm hodisasi B.A. Larin, A.M. Katsev, N.T.S. Boschayeva, L.V. Artyushkina, G.G. Kujim va boshqa tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning turli nuqtai nazardan turli jihatlari yoritilgan.

Masalan, L. V. Artyushkina, evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo'lsa, N.T.S Boschayeva tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o'rganiladi. G.G. Kujim evfemizmning tilning "meliorativ" vositasi sifatida yoritisa, A.M. Katsev uni ijtimoiy psixologik – jihatdan talqin etadi. Qayta nomlash bilan bog'liq tomoni esa N.M. Berdova tomonidan tadqiq etiladi va izlanishlar natijasida evfemizmning 4 jihatini aniqlanadi:

1. Lisoniy;
2. Psixologik;
3. Ijtimoiy;
4. Pragmatik.

N.M. Potapova tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ayni jarayonning quyidagi belgi (mezon) larini ko'rsatadi:

Denotatning stigmatikligi (salbiy bo'yoqdorligi) ("stigma") tushunchasi N.M. Berdova tadqiqotida sharhlanadi :("Stigma ostida nafaqat predmetning antetsedentda aks etgan salbiy xususiyati , balki salbiy taassurot uyg'otish xossalari ham tushuniladi");

1. Ijodiy bo'yoq hosil qilish;
2. Ijodaning asliyatini saqlash.

E.P. Senechkina qo'shimcha belgilarini ham ko'rsatadi: Evfemizmning denotat salbiy bo'yog'ini yumshatuvchi semantik noaniqligi; Denotatni ijobiylashtirishda gap qaysi predmet yoki hodisa haqida ketayotganligining anglashishini ta'minlovchi formal tabiati. U ushbu o'lchovlarga javob bermagan ifoda evfemizm emasligiga va bu fikrga shu hodisani o'rganishga harakat qilgan barcha olimlar qo'shilishini ta'kidlaydi.

V.P. Moskvina "Евфемизм в лексической системе современно русского языка" asarida evfemizmlarning kategorial maqomi, evfemizatsiya usulining qo'llanish sferasi,

shuningdek, evfemizmlarning qator yondosh hodisa (psevdoevfemiya, kriptologiya, ezop tili, dezinformatsiya, obrazli ifoda) lar bilan o'zaro munosabatini tadqiq qildi. Evfemizmlarning mavzuvii va situativ xususiyati, qo'llanishi, yasalishi, sinonimik ham leksik tizimidagi o'rni, lison va nutqqa munosabati, leksikografik tavsifiga doir fikrlarini bayon etdi.

Evfemizmlar birliklar serqirra hodisa bo'lib, bu ularni har bir belgisi asosida turlicha tasnif qilish imkonini beradi. Zero, individual nutqqa xos evfemizmlar lisoniy va nolisoniy omillar asosida qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirishgina har bir evfemizmlarning o'ziga xos, shuningdek, shaxs idiolektiga xos evfemizmlarning tasnifiy belgilarni ikkita katta guruhlariga ajratamiz.

1.Lisoniy belgilar.

2.Nolisoniy belgilar.

Lisoniy belgilar asosdagi tasnifda evfemizmlar birliklarning mavzuvii, semantik, shakliy (struktur).Uslubiy xususiyatlariga tayaniladi .Nolisoniy belgilar asosdagi tasnifda esa evfemizmlar birliklarning nutqii voqealanishida dialektik birlikda yuzaga chiquvchi tashqi omillar e'tiborga olinadi.Bular sirasiga so'zlovchi va tinglovchi shaxsning dunyoqarashi, saviyasi, ijobiy yoki salbiy obrazligi, jinsi, yoshi kabi sof lisoniy omillar bilan birgalikda nutq sharoitida va vaziyati bilan bog'liq pragmatik omillarni sanash mumkin. Evfemizmlar miqdori jihatidan rang- barang bo'lish bilan birga mavzuvii jihatdan ham xilma – xil bo'ladi.

Badiiy adabiyotlarda evfemizmlarning aksariyati insonni, uning xususiyatlari va xatti – harakatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu badiiy adabiyotning bosh ob'ekti inson bo'lganligi bilan belginadi. Mavzu quyida badiiy asarlardan olingan misollar asosida yoritilgan. Valine'mat so'zini ikki xil ma'noda uchratish mumkin: kinoyaviy evfemizmlar ma'no va tabulashgan evfemizmlar ma'no. Har ikki ma'no matnda, qurshov asosida yuzaga chiqadi: Bas, siz bilan biz ishchi-dehqon xodimi bo'la turib, nega valine'matimizga oyoq xizmatini o'taymiz (Abdulla Qodiriy "Shallaqi"). Bu yerda Stalin nomini almashtiruvchi mazkur ifoda uslubii evfemizmlar sifatida hurmat munosabatini yuzaga keltirgan desak, to'g'ri bo'lmaydi. Bu so'z matnda kinoya asosidagi evfemizmlar sifatida qaraladi. Quyidagi jumlada birlik o'z ma'nosida yuzaga chiqqan va evfemizmlar sifatida "ohangdan" holidek tasavvur uyg'otadi: Qullaridan biri valine'matimga ikki kalima arzim bor, deydir. (Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon"). "Valine'mat"ning ismini tutishga istihola mavjudligi uning evfemizmlarini ko'rsatadi. –Oyi...dada...-so'ngra,-begim, deb ingradi...Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalgansimon ko'zini yumdi... (Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar") Ko'zini yumdi - hayotdan ko'z yumdi ma'nosida o'lmoq so'zining evfemizmlar ma'noda qo'llanishi. Lekin u hech Abdulla bilan turmush qurishni xayoliga kelmagan edi. (O'lmas Umarbekov "Odam bo'lish qiyin") Ushbu matnda turmush qurmoq – uylanmoq yoki erga tegmoq kabi bevosita ma'nosini beruvchi so'zlarga qaraganda evfemizmlar ma'no beradi. Zaynabxon e'tiroz bildirdi.

(O'lmas Umarbekov "Garov" hikoyasi) Qarshilik qildi yoki tanqid qildi kabi to'g'ridan to'g'ri keskin ifodaga qaraganda yumshoqroq evfemik ma'no beradi. Kundali hayotimizda ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, Maqsuda o'qishdan ozod qilindi." "Ozod qilmoq" so'zini olsak, haydaldi so'ziga nisbatan evfemik ma'no beradi. Sevinch hayotida yangi sahifa ya'ni yangi hayot boshladi." "Yangi hayot boshladi" so'zini olsak," ajrashdi o'rniga "qo'llangan. Jamila sarqomat, bejirim ayol edi. Ushbu "bejirim ayol" iborasi "go'zal" yoki "maftunkor" so'zlarini yumshatish yoki yanada nafisroq ko'rsatish uchun ishlatilsa, bu evfemizm bo'lib keladi. (Chingiz Aytmatov "Jamila" qissasi) Jannatmakon so'ziga ham Amir Umarxon shaxsini ifodalash uchun evfemik ma'no yuklagan: - Siz "jannatmakon" ni ko'rganmisiz? (Abdulla Qodiriy "1819 - yil yodgori") Abdulla Qodiriy spiritli ichimliklarning evfemik ifodalarini qahramon tilidan qo'llaydi. Masalan, Xomidning sheriklaridan biri Mutal polvon tilidan dori (aroq), Shirvon xola tilidan zahar (aroq), Toshpo'lat tilidan "obi surx" (vino), obirahmat (aroq), oqsoqol (aroq, spirt) birliklarini evfemik vosita sifatida ishlatadi. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanidan shunday jumlani evfemizm sifatida keltirishimiz mumkin: "Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha quyilmaydiganga o'xshaydi". Ushbu asar qahramoni Nigoroyim tilidan aytilgan jumladagi "egasiga topshirmoq" so'z birikmasi "erga bermoq" so'zining yumshatilish shakli hisoblanadi. Hajviy qahramon Toshpo'lat tajangning ayni mavzuga doir "qirq gazlik" ifodasi ham juda go'zal evfemik ma'noli birlik sifatida o'z aksini topgan: Axir Toshpo'lat akaning ham orqasig'a oftob tegar, ul ham sizni yangi chiqq'an "qirq gazligi" bilan bir kun mehmon qilib qola, shoshmoq shaytonning ishi! (A. Qodiriy "Toshpo'lat tajang nima deydi?") Tamagirlik, pora mavzusi doirasida evfemik ma'noli birliklar xilma - xil: elkasi qichimasin (tamagirlik qilmasin), yovvoyi chiqim (pora), mullajiring (pul; pora), "qarz" (pora), cho'ntakparast (tamagir, pulga o'ch odam), konvert orqali ulashilgan ("badal"lar "pul, pora) kabi evfemik ma'noli birliklar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, evfemizmlar axloq me'yorlariga zid so'z va iboralar o'rnida qo'llaniluvchi muqobil so'zlar hisoblanadi hamda ularni o'rinli qo'llash suhbatdoshingizni ko'ngliga ozor berishning oldini oladi. Evfemizatsiya badiiy matnlarda tilning uslubiy vositalardan biri sifatida ishlatiladi. A. Omonturdiyev o'zining "O'zbekning tilining qisqacha evfemik lug'ati" ga to'plagan, ular sirasiga xalq orasidagi 150 dan ortiq iborani kiritgan.

REFERENCES

1. Ibragimova So'g'diyona "Evfemizm faol til birligi sifatida" maqolasi
2. Xaydarova Shoira "Evfemizmlarning tilshunoslikda o'rganilish tarixi" maqolasi
3. Qodirova Xurshida "O'zbek tilida evfemizm va desfemizm" Toshkent 2022
4. ziyo.uz